XALQ DEPUTATLARI YANGIBOZOR TUMAN KENGASHI

Yangibozor tumani, 221200, J.Manguberdi ko‘chasi, 59-uy, Tel: 0(362) 41-92-303

2024 - yil 4 - yanvar VI-92-1-12-178-K/24 Yangibozor tuman hokimligi

Yangibozor tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 5-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Yangibozor tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 5-dekabrdagi qo‘shma xatlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalar iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2024-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1, 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, yer solig‘ining amaldagi stavkalari 1,13 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari keyingi yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Ushbu qaror “Yangibozor ko‘zgusi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Xalq deputatlari Yangibozor tumani Kengashining 2023-yil 9-yanvardagi VI-79-3-12-178-K/23-sonli qarorining 1, 2-ilovalari 2024-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i J.Xalmetov hamda xalq deputatlari Yangibozor tumani Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshorish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Iskandarovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **R.Jumaniyazov**

Xalq deputatlari Yangibozor tuman
Kengashining
2024-yil 4-yanvardagi
VI-92-1-12-178-K/24-son qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda
1	Barhayot MFY	1,07	321,86
2	Bog‘olon MFY	1,07	321,86
3	Bo‘ston MFY	1,07	321,86
4	Guliston MFY	1,07	321,86
5	Jayxun MFY	1,07	321,86
6	Istiqlol MFY	1,07	321,86
7	Iftixor MFY	1,07	321,86
8	Qadriyat MFY	1,07	321,86
9	Katli MFY	1,07	321,86
10	Qiyot MFY	1,07	321,86
11	Qoratepa MFY	1,07	321,86
12	Mang‘itlar MFY	1,07	321,86
13	Navbahor MFY	1,07	321,86
14	Oltinko‘l MFY	1,07	321,86
15	Ochaqal‘a MFY	1,07	321,86
16	Pahlavon Mahmud MFY	1,07	321,86
17	Tozado‘rman MFY	1,07	321,86
18	Hayvat MFY	1,07	321,86
19	Xalqobod MFY	1,07	321,86
20	Hamdo‘stlik MFY	1,07	321,86
21	Hamid Olimjon MFY	1,07	321,86
22	Cho‘bolonchi MFY	1,07	321,86
23	Shirinlar MFY	1,07	321,86
24	Shoirlar MFY	1,07	321,86
25	Yuqori Bashqir MFY	1,07	321,86
26	Yangiobod MFY	1,07	321,86
27	Mingbog‘olon MFY	1,07	321,86
28	Do‘stlik MFY	1,17	351,94
29	Navro‘z MFY	1,17	351,94
30	Yangiyop MFY	1,17	351,94

Xalq deputatlari Yangibozor tuman
Kengashining
2024-yil 4-yanvardagi
VI-92-1-12-178-K/24-son qaroriga
2-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
1	Barhayot MFY	0,81	27 410 400
2	Bog‘olon MFY	0,81	27 410 400
3	Bo‘ston MFY	0,81	27 410 400
4	Guliston MFY	0,81	27 410 400
5	Jayxun MFY	0,81	27 410 400
6	Istiqlol MFY	0,81	27 410 400
7	Iftixor MFY	0,81	27 410 400
8	Qadriyat MFY	0,81	27 410 400
9	Katli MFY	0,81	27 410 400
10	Qiyot MFY	0,81	27 410 400
11	Qoratepa MFY	0,81	27 410 400
12	Mang‘itlar MFY	0,81	27 410 400
13	Navbahor MFY	0,81	27 410 400
14	Oltinko‘l MFY	0,81	27 410 400
15	Ochaqal‘a MFY	0,81	27 410 400
16	Pahlavon Mahmud MFY	0,81	27 410 400
17	Tozado‘rman MFY	0,81	27 410 400
18	Hayvat MFY	0,81	27 410 400
19	Xalqobod MFY	0,81	27 410 400
20	Hamdo‘stlik MFY	0,81	27 410 400
21	Hamid Olimjon MFY	0,81	27 410 400
22	Cho‘bolonchi MFY	0,81	27 410 400
23	Shirinlar MFY	0,81	27 410 400
24	Shoirlar MFY	0,81	27 410 400
25	Yuqori Bashqir MFY	0,81	27 410 400
26	Yangiobod MFY	0,81	27 410 400
27	Mingbog‘olon MFY	0,81	27 410 400
28	Do‘stlik MFY	1,02	34 516 800
29	Navro‘z MFY	1,02	34 516 800
30	Yangiyop MFY	1,02	34 516 800